



SAMARQAND VILOYATI BULUNG'UR TUMANI HOKIMINING QARORI

2021 - yil 29 - dekabr

191-7-93-Q/21

Bulung'ur tuman hokimligi

Tumanda 2022-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq transport vositalarining 2022-yilda majburiy texnik ko'rigini tashkil qilish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi "Yo'l harakati xavfsizligi to'g'risida"gi Qonunining 17-moddasi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6, 25-moddalariga asoslanib

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat'iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalari majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish bo'yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan transport vositalarining 2022-yilgi majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari quyidagi davriylikka muvofiq texnik ko'rikdan o'tkazilsin:

Tijorat asosida yo'lovchilar tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yengil

avtomobillar, avtobuslar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

Ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

Ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

Tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

Navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’iy nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

Birinchi marta 1-martdan 30-iyunga qadar;

ikkinchi marta 1-sentabrdan 31-oktabrga qadar;

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvardan 31-dekabrga qadar o‘tkazilsin.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma‘lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek, transport vositasining rang-grafik bo'yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg'isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko'rikdan o'tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o'tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta'minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko'rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o'tkazilsin hamda tegishli yig'im undirilishi;

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi;

Jismoniy shaxslarga tegishli bo'lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko'rikdan o'tkazilishi ta'minlasin.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko'rikdan o'tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o'z vaqtida texnik ko'rikdan o'tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli "Transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish tartibi to'g'risida nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 3-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo'linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko'rikdan o'tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2021-yil 9-martdagi 203-Q sonli "Tumanda 2021-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish to'g'risida"gi qarori o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o'rinbosari D.Xabibullayev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



Astonov S. M.

Bulung'ur tuman hokimining
2021 yil 29 dekabrda
191-7-93-Q/21-son qaroriga
1-ilova

**Bulung'ur tumani hududida 2022-yilda transport vositalarini texnik
ko'rikdan o'tkazish komissiyasining**

T A R K I B I

T/r	Ism familiyasi	Lavozimi
1	S.Bazarov	Tuman IIB Yo'l harakati xavfsizligi bo'lim boshlig'i, komissiya raisi
2	A.Shukurov	Tuman Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish inspeksiyasi boshlig'i
3	T.Xasanov	Tuman Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i
4	Sh.Hudayberdiev	Tuman "Vatanparvar" tashkiloti raisi
5	F.Mavlanov	Samarqand viloyati Transport boshqarmasining biriktirilgan xodimi
6	O.Yarqulov	Tuman "Avtomotohavaskorlar" jamiyati raisi

Bulung'ur tuman hokimining
2021 yil 29 dekabrda
191-7-93-Q/21-son qaroriga
2-ilova

**Bulung'ur tumanida mavjud bo'lgan tashkilot, korxonalar va
avtoxojaliklarga tegishli transport vositalarining
2022-yilgi majburiy texnik ko'rikdan o'tkazish**

J A D V A L I

T/r	Tashkilot va xo'jaliklar nomi	Transport vositalari soni	Texnik ko'rik o'tkazish vaqti	O'tkazish joyi
1	"ABRQUL SERVIS TRANS" MCHJ	36	01/02-2022 y.	Tash a/saroyida
2	"AVTO YO'LOVCHI TRANS" MCHJ	53	02/02-2022 y.	Tash a/saroyida
3	"GULBAXOR OPA TRANS" MCHJ	16	03/02-2022 y.	Tash a/saroyida
4	"MUHABBAT AUTO TRANS" MCHJ	31	04/02-2022 y.	Tash a/saroyida
5	"XUSNIDDIN SERVIS TRANS" MCHJ	45	05/02-2022 y.	Tash a/saroyida
6	"YODGOR TRANS" MCHJ	44	07/02-2022 y.	Tash a/saroyida
7	"YODGOR TRANS PLUS" MCHJ	20	08/02-2022 y.	Tash a/saroyida
8	"BULUNG'UR LAZIZ TRANS" MCHJ	17	09/02-2022 y.	Tash a/saroyida
9	"UMID AVTO TRANS SERVIS" MCHJ	2	10/02-2022 y.	TumanYHXBda
10	"BOLG'ALI TRANS" MCHJ	11	11/02-2022 y.	Tash a/saroyida
11	"BAHORA AVTO YO'LOVCHI TRANS" MCHJ	21	12/02-2022 y.	Tash a/saroyida
12	"MINGTEPA TRANS" MCHJ	15	14/02-2022 y.	Tash a/saroyida
13	"OLOMON TRANS" MCHJ	31	15/02-2022 y.	Tash a/saroyida
14	"OLQARTEPA SERVIS" X/K	2	16/02-2022 y.	Tash a/saroyida
15	"SHOXJAXON MAXSUS TRANS" MCHJ	6	17/02-2022 y.	Tash a/saroyida
16	"BULUNG'UR G'AYRATBEK TRANS" MCHJ	1	18/02-2022 y.	TumanYHXBda
17	"BULUNG'UR AVTOMOBIL USTOZ" MCHJ	11	19/02-2022 y.	Tash a/saroyida
18	"MKT VATANPARVAR" USTK	22	21/02-2022 y.	Tash a/saroyida
19	"GRAND NUR AVTO XAVASKORLAR" SH/K	12	22/02-2022 y.	Tash a/saroyida
20	"BULUNG'R TUMAN UQYB-SPORT TEXNIK KLUBI"	1	23/02-2022 y.	TumanYHXBda
21	"BULUNGUR-SANDVIK" QK MCHJ	29	24/02-2022 y.	Tash a/saroyida
22	"KOLIBRI" MCHJ	8	25/02-2022 y.	Tash a/saroyida
23	"MAROKAND SIFAT" MCHJ	4	26/02-2022 y.	Tash a/saroyida
24	"O'ZBEKTELEKOM AK TELEKOMPANIYASI"	18	28/02-2022 y.	Tash a/saroyida
25	"OZODLIK DAVLAT KORXONASI"	18	01/03-2022 y.	Tash a/saroyida
26	"RAISE PRODUCTION BUSINESS" MCHJ	9	02/03-2022 y.	Tash a/saroyida

27	“AZIZ TRANS SERVIS” MCHJ	11	03/03-2022 y	Tash a/saroyida
28	“BULUNG‘UR TUMAN HOKIMLIGI	10	04/03-2022 y	Tash a/saroyida
29	“DAVMAXSUSPUDRAT” DUK	7	05/03-2022 y	Tash a/saroyida
30	“SAMARKAND SUV TA‘MINOTI” MCHJ TUMAN FILIALI	7	07/03-2022 y	Tash a/saroyida
31	“MIRJALOLTRANS” XUSUSIY KORXONASI	7	08/03-2022 y	Tash a/saroyida
32	BULUNG‘UR TUMAN TIBBIYOT BIRLASHMASI	2	09/03-2022 y	TumanYHXBda
33	BULUNG‘UR TUMAN DSI	1	10/03-2022 y	TumanYHXBda
34	BULUNG‘UR TUMAN YFUK	6	11/03-2022 y	Tash a/saroyida
35	“GULOBOD GOLD G‘ISHT” MCHJ	5	12/03-2022 y	Tash a/saroyida
36	“JAMSHIDBEK STAR LYUKS” X/K	4	14/03-2022 y	Tash a/saroyida
37	“KOMUNAL FOYDALANISH KORXONASI”	2	15/03-2022 y	TumanYHXBda
38	“TOZA XUDUD” DUK	9	16/03-2022 y	Tash a/saroyida
39	“ME‘MOR” XUSUSIY FIRMASI	6	17/03-2022 y	Tash a/saroyida
40	“OQ ARIQ SHAROB SAVDO” IBUK	4	18/03-2022 y	Tash a/saroyida
41	“SHER TRANSPORT” KORXONASI	3	16/03-2022 y	Tash a/saroyida
42	“EZGU NIYAT SERVIS TRANS” MCHJ	5	21/03-2022 y	Tash a/saroyida

43	“BULUNG‘UR AVTO LYKS” XUSUSIY KORXONASI	452	22/03-2022 y	Tash a/saroyida
44	BULUNG‘UR VIN KOMBINATI	2	23/03-2022 y	Tash a/saroyida
45	“BULUNG‘UR TUMAN GAZ SERVIS” MCHJ	2	24/03-2022 y	Tash a/saroyida
46	“BULUNG‘UR DOBIL QURUVCHI” XUSUSIY KORXONASI	2	25/03-2022 y	Tash a/saroyida
47	“BULUNG‘UR TUMAN DSMP” DUK	1	26/03-2022 y	TumanYHXBda
48	“BULUNG‘UR TUMAN YER RESURSLARI	1	28/03-2022 y	TumanYHXBda
49	BULUNG‘UR TUMAN MATBUOT SAVDO	1	29/03-2022 y	TumanYHXBda
50	“BULUNG‘UR TUMAN MEGASHOU”	1	30/03-2022 y	TumanYHXBda
51	BULUNG‘UR TUMAN MIKROKREDIT BANKI	1	31/03-2022 y	TumanYHXBda
52	“BULUNG‘UR TUMAN MTP” DAJ	4	01/04-2022 y	Tash a/saroyida
53	“BULUNG‘UR TUMAN SUT XUSUSIY KORXONASI	2	02/04-2022 y	Tash a/saroyida
54	“BULUNG‘UR TUMAN XAIQ TA‘LIMI BO‘LIMI	3	04/04-2022 y	Tash a/saroyida
55	“BULUNG‘UR TUMAN KASB XUNAR KOLLEJI	4	05/04-2022 y	Tash a/saroyida
56	“BULUNG‘UR TUMAN 2-SON KASB XUNAR MAKTABI	1	06/04-2022 y	TumanYHXBda
57	“BULUNG‘UR TUMAN MAKTABGACHA TA‘LIM” BO‘LIMI	1	07/04-2022 y	TumanYHXBda
58	“MAISHIY XIZMAT KASB-XUNAR KOLLEJI”	1	08/04-2022 y	TumanYHXBda
59	“MAROKAND SIFAT” MCHJ	2	09/04-2022 y	Tash a/saroyida
60	“BULUNG‘UR MUROD BAXT” MCHJ	3	11/04-2022 y	Tash a/saroyida

61	“BOBOYOR QAYIMOV” XK	2	16/04-2022 y	Tash a/saroyida
62	“MANSUR SIFAT QURILISH” MCHJ	2	18/04-2022 y	Tash a/saroyida
63	“SAMARKAND RICHLAND INTERNATIONAL INVESNMEN” MCHJ	2	19/04-2022 y	Tash a/saroyida
64	“SHOXJOXON ABDULAZIZ” O`K	1	20/04-2022 y	TumanYHXBda
65	“TRANSPORT OTASH” MCHJ	2	21/04-2022 y	Tash a/saroyida
66	“AT “BULUNG‘UR TUMAN XALQ BANKI	2	22/04-2022 y	Tash a/saroyida
67	“AFROSIYB MEVA” Q/K	2	23/04-2022 y	Tash a/saroyida
68	“BOBOYR QAYUMOV” XUSUSIY FIRMASI	2	25/04-2022 y	Tash a/saroyida
69	“ISMATULLO SAVDO SERVIS” MCHJ	2	26/04-2022 y	Tash a/saroyida
70	“KAMOLA XOLMAT QIZI XUSUSIY FIMASI	2	27/04-2022 y	Tash a/saroyida
71	“NIZOMIDDIN QURUVCHI” XUSUSIY KORXONASI	3	28/04-2022 y	Tash a/saroyida
72	“FOLGON MOBILE” MCHJ	3	29/04-2022 y	Tash a/saroyida
73	“G‘AYRATBEK – SH FIRMASI	2	30/04-2022 y	Tash a/saroyida
74	“BULUNG‘UR DILSHOD QURUVCHI” X/K	1	02/05-2022 y	TumanYHXBda
75	“MORAKAND NEFT BAZASI”MCHJ	12	03/05-2022 y	Tash a/saroyida
76	“ABDUG‘APPOR JALILOV DALASI” F/X	1	04/05-2022 y	TumanYHXBda
77	“BAXTIYOR XAITOV” BXB FERMER XO‘JALIGI	1	05/05-2022 y	TumanYHXBda
78	“GAVXAR SHAXZOD RAVOT DALASI” FERMER XO‘JALIGI	1	06/05-2022 y	TumanYHXBda
79	“XAZRAT BOBO” FERMER XO‘JALIGI	3	07/05-2022 y	Tash a/saroyida
80	“AZIZBEK ULUGBEK ZAMINI” F/X	11	09/05-2022 y	Tash a/saroyida
81	“AZIZ BOYMURADOV DALASI” F/X	1	10/05-2022 y	TumanYHXBda
82	“SULTON BEKZODI” X/F	1	11/05-2022 y	TumanYHXBda
83	“TOIR BUNYODKOR DALASI” F/X	1	12/05-2022 y	TumanYHXBda
84	“ASADBEK AXRORBEB DALASI” F/X	3	13/05-2022 y	Tash a/saroyida
85	“JAMSHID” F/X	2	14/05-2022 y	Tash a/saroyida
86	“JERTOSH” F/X	1	16/05-2022 y	TumanYHXBda
87	“ISTIQLOL ZIYSI” F/X	2	17/05-2022 y	Tash a/saroyida
88	“QAMAR NURI DALASI” F/X	1	18/05-2022 y	TumanYHXBda
89	“M.ERGASHEV” F/X	1	19/05-2022 y	TumanYHXBda
90	“OLMAZOR JANIQUK DALASI” F/X	1	20/05-2022 y	TumanYHXBda
91	“OLMAZOR ORZU UMID DALASI” F/X	1	21/05-2022 y	TumanYHXBda
92	“UROL BOBO” F/X	1	23/05-2022 y	TumanYHXBda
93	“SHAVKAT BOSIMOV” XUSUSIY FIRMASI	1	24/05-2022 y	TumanYHXBda
94	“SHODMONOV NURIIDDIN BOGLARI” F/X	1	25/05-2022 y	TumanYHXBda
95	“NIROV ASLIDDIN DALASI” F/X	1	26/05-2022 y	TumanYHXBda
96	“NILUFAR GOLD FISH” F/X	1	27/05-2022 y	TumanYHXBda
98	“NAVBOG SAXOVATI” F/X	1	28/05-2022 y	TumanYHXBda

99	“CHUYANTEPA” SH\X	6	30/05-2022 y	Tash a/saroyida
100	“X.OLIMJON” SH\X	2	31/05-2022 y	Tash a/saroyida
101	“A.MAXSUMOV” SH\X	1	01/06-2022 y	TumanYHXBda
102	“A.TEMUR” J\X	4	02/06-2022 y	Tash a/saroyida
103	“BESHKUVI” SH\X	4	03/06-2022 y	Tash a/saroyida
104	“G‘ALABA” SH\X	3	04/06-2022 y	Tash a/saroyida
105	“G‘O‘BDIN” SH\X	5	06/06-2022 y	Tash a/saroyida
106	“DO‘STLIK” IX	2	07/06-2022 y	Tash a/saroyida
107	“F.YO‘LDOSH” SH\X	1	08/06-2022 y	TumanYHXBda
JAMI:		702		

Eslatma: Jismoniy shaxslarga tegishli transport vositalari haftaning yakshanba kunidan tashqari soat 8:00 dan 17:00 ga qadar tuman IIB YHXB hovlisida texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.